



XALQ DEPUTATLARI SHOFIRKON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-oktabr

VII-16-91-2-41-K/25

Shofirkon tumani

Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-oktyabrda qabul qilingan "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-maydagi VM-24/24-35-sonli yig'ilish bayonida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida tumanda bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Shofirkon tumanidagi 50 mahalla fuqarolar yig'inining Kengash vakillari ishtirokida ko'chalar qayta xatlovdan o'tkazilib, mavjud ko'chalar toifalarga ajratilib, Davlat kadastrlar agentligi Shofirkon tumani filialida elektron xaritalari shakllantirilgan.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarning Qonun hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish komissiyasining 2025-yil 27-fevraldagi 05-05-2049-sonli ekspertiza xulosasiga asosan Shofirkon tumanidagi nomsiz ko'chalarga nom berish yuzasidan berilgan takliflarning 1692 tasi muvofiq deb topilib, qo'shimcha ravishda xatlov natijasida aniqlangan 42 ta ko'chalar (ko'cha, tor ko'cha, berk ko'cha) ro'yxati shakllantirildi. Shuningdek, tuman hokimining 2025-yil 9-sentabrdagi 01-12/1977-sonli xati asosida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasiga taqdim qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 4-oktabrdagi 03/08-11180-sonli xati asosida Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish ekspert xulosalari olingan.

O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari

haqida”gi 295-sonli hamda 2020-yil 20-yanvardagi “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 34-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to’g’risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o’tkazish ekspert komissiyasi tomonidan, Shofirkon tumanidagi 21 ta mahalla fuqarolar yig’inlaridagi 42 ta geografik obyekttni nomlash va qayta nomlash bo’yicha takliflar O’zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to’g’risida”gi Qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilib, belgilangan ekspertiza xulosasi tasdiqlangan ligini bildirib Shofirkon tumanida amalga oshirilishi kerak bo’lgan ishlar to’g’risidagi tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to’g’risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo’yicha maslahatchisi Sh.Obloqulovning axborotini atroflicha muhokama qilib, Xalq deputatlari Shofirkon tumani Kengashi

QAROR QILDI:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to’g’risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o’tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 27-fevraldagi 05-05-2049-sonli ekspertiza xulosasiga xulosasi hamda tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to’g’risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo’yicha maslahatchisi Sh.Obloqulovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shofirkontumani geografik obyektlariga beriladigan nomlar va ularni qayta nomlash takliflari ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Tuman ichki ishlar bo’limi (R.Yusupov) tuman mahallalaridagi nomlangan va qayta nomlangan ko’chalarga aholini ro’yxatga qo’yish va tegishli yo’l belgilariga o’zgartirishlar kiritish bilan bog’liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

4. Davlat kadastrlar palatasi Shofirkon tumani filiali (A.Saidov), tuman statistika bo’limi (B.Azimov)larga: tumanda yangi nomlangan va nomi o’zgargan geografik obyektlarni tuman xaritasiga joylashtirish, shuningdek, tegishlicha tuman statistika ma’lumotlariga o’zgartirishlar kiritsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to’g’risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo’yicha maslahatchisi Sh.Obloqulova bilan birgalikda O’zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to’g’risida”gi hamda “Davlat tili haqida”gi Qonunlari talablari asosida ushbu olib borilgan ishlarni ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo’yicha masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi raisi (N.Sadullayev) hamda tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar

samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi (Sh.Obloqulova)lar zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



FAYZILLOYEV ALISHER
ABDILLOYEVICH

Xalq deputatlari Shofirkon tumani Kengashining
2025-yil 28-oktabrdagi
VII-16-91-2-41-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Shofirkon tumanida
Xatlov natijasida nomlash uchun aniqlangan ko'chalar**

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog'lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining izohi	Ekspert komissiyasining xulosasi
1. 2	Berk ko'cha	Ko'rishkent mahallasi	Nomsiz berk	Ayronchi berk		
2.	Tor ko'cha	Talisafed mahallasi	Nomsiz 6-tor	Bodomzor 6-tor		
3.	Tor ko'cha	Quyi Chuqurak mahallasi	Nomsiz 7-tor	Bodomzor 7-tor		
4.	Ko'cha	Jo'ynav mahallasi	Nomsiz	Dilkash		
5.	Berk ko'cha	Jo'ynav mahallasi	Nomsiz berk	Dilkash berk		
6.	Berk ko'cha	Quyi Chuqurak mahallasi	Nomsiz 3-berk	Gulxan 3-berk		
7.	Ko'cha	Jo'sho'ra mahallasi	Nomsiz	Havas		
8.	Ko'cha	Qalmaqon mahallasi	Nomsiz	Hilol		
9.	Ko'cha	Qalmaqon mahallasi	Nomsiz	Islohot		
10.	Tor ko'cha	Mahallaqozi mahallasi	Nomsiz 3-tor	Ko'kchilar 3-tor		
11.	Berk ko'cha	Ko'rishkent mahallasi	Nomsiz 5-berk	Mehribog' 5-berk		
12.	Tor ko'cha	Yangiqishloq mahallasi	Nomsiz 2-tor	Navnihol 3-tor		
13.	Ko'cha	Boboato mahallasi	Nomsiz	Zakovat 102		

14.	Ko'cha	Savrak mahallasi	Nomsiz	So'zangaron 103		
15.	Ko'cha	Savrak mahallasi	Nomsiz	To'qimachi 104		
16.	Tor ko'cha	Mazlaxon-Chandir mahallasi	Nomsiz 3-tor	Ostona 3-tor		
17.	Ko'cha	Do'rmon mahallasi	Nomsiz	Qalqon		
18.	Ko'cha	Bogi`afzal mahallasi	Nomsiz	Ravon		
19.	Berk ko'cha	Bogi`afzal mahallasi	Nomsiz berk	Ravon berk		
20.	Ko'cha	Boboato mahallasi	Nomsiz	Sadoqat		
21.	Ko'cha	Sultonbobod mahallasi	Nomsiz	Sanoat		
22.	Tor ko'cha	Yangiqishloq mahallasi	Nomsiz 1-tor	Sarbon 1-tor		
23.	Tor ko'cha	Yangiqishloq mahallasi	Nomsiz 2-tor	Sarbon 2-tor		
24.	Berk ko'cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz 1-berk	Shodlik 1-berk		
25.	Berk ko'cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz 2-berk	Shodlik 2-berk		
26.	Berk ko'cha	Temirchi mahallasi	Nomsiz berk	Shuhrat berk		
27.	Berk ko'cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz 1-berk	Sulton Jo'ra 1-berk		
28.	Tor ko'cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz 1-tor	Sulton Jo'ra 1-tor		
29.	Berk ko'cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz 2-berk	Sulton Jo'ra 2-berk		
30.	Tor ko'cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz 2-tor	Sulton Jo'ra 2-tor		
31.	Tor ko'cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz 3-tor	Sulton Jo'ra 3-tor		
32.	Tor ko'cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz 4-tor	Sulton Jo'ra 4-tor		
33.	Tor ko'cha	Shodlik mahallasi	Nomsiz 5-tor	Sulton Jo'ra 5-tor		
34.	Berk ko'cha	Zarchabek mahallasi	Nomsiz berk	Sultonobod berk		
35.	Tor ko'cha	Jilvon mahallasi	Nomsiz 2-tor	Tojmahal 2-tor		
36.	Tor ko'cha	Jilvon mahallasi	Nomsiz 1-tor	Tojmahal 1-tor		
37.	Ko'cha	Zarchabek mahallasi	Nomsiz	Nilufar		
38.	Berk ko'cha	Qalmaqon mahallasi	Nomsiz berk	Nilufar berk		
39.	Tor ko'cha	Qalmaqon mahallasi	Nomsiz tor	Nilufar tor		
40.	Ko'cha	Yangiqishloq mahallasi	Nomsiz	Olchazor		
41. –	Tor ko'cha	Yangiqishloq mahallasi	Nomsiz tor	Olchazor tor		

42.	Tor ko'cha	Zarchabek mahallasi	Nomsiz 2-tor	Xiva 2-tor		
-----	------------	---------------------	--------------	------------	--	--